



O'zbekiston Respublikasi
Maktabgacha va maktab
ta'limi vazirligi

ISSN: 2992-9008
UDK: 37

TA'LIM VA TARAQQIYOT

Ilmiy-uslubiy jurnali



2026-YIL 5-SON

www.journal.namspi.uz

Bosh muharrir: Namangan davlat pedagogika instituti rektori B.E.Xusanov
Mas'ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor M.R.Qodirxonov
Mas'ul muharrir o'rinbosari: Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i J.A.Yuldashev

TAHRIR HAY'ATI

Aniq va tabiiy fanlar: k.f.d., prof. Sh.Abdullayev, f-m.f.d., dots. R.Xakimov, k.f.d., prof. N.Vohidova, k.f.d., dots. M.Qodirxonov, b.f.d., dots. A.Batashov, f-m.f.n., dots., T.Abdullayev, p.f.n., dots. M.Eshnazarova, p.f.n., dots. G'.Nafasov, p.f.n., dots. M.Boltayeva.

Texnika fanlari: t.f.d., prof. A.Umarov, t.f.d., prof. A.Qayumov, PhD, dots. Sh.Xudoyqulov, PhD, dots. Abdunazarov.

Ijtimoiy-gumanitar fanlar: s.f.d., prof. T.Fayzullayev, tar.f.d., prof. A.Rasulov. f.f.d., prof. M.Ismoilov, i.f.d., dots. N.Sotivoldiyev, t.f.n., dots. A.Isoqboyev, f.f.n., dots. O.Mamatov, t.f.n., dots. Z.Haydarov, PhD. J.Yuldashev, PhD. A.Abdullayev.

Pedagogika fanlari: p.f.d., prof. B.Xodjayev, p.f.d., prof. X.Najmiddinova, p.f.d., prof. T.Ismoilov, p.f.d., prof. S.Abdullayev. p.f.d., prof., M.Y.Sobirova, p.f.d., prof., R.Zamilova, p.f.d., prof. Sh.Xujamberdiyeva, p.f.d., dost. M.Asqarova, PhD, dots. M.Asranboyeva.

Filologiya fanlari: fil.f.d., prof. N.Uluqov, fil.f.d., prof. H.Usmanova, f.f.d., dots. X.Shokirova, p.f.n., dots. S.Misirov, p.f.n., dots. Sh.Ubaydullayev, PhD, dots. P.Lutfullayev, PhD, dots. M.Yakubbayev.

Texnik muharrir: R.Tursunov

Tahririyat manzili: Namangan shahri, Uychi ko'chasi, 316-uy.

Pochta indeksi: 160136, **Faks:** (0369) 227-27-21,

Email: Info@namspi.uz

"Ta'lim va taraqqiyot" ilmiy-uslubiy jurnali elektron to'plam sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi **Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi (AOKA)ning 2022-yil 25-oktabrdagi № 045044 raqamli guvohnomasi** asosida chop etiladi. Jurnal **Oliy Attestatsiya komissiyasining 2024-yil 30-noyabrdagi (№ 364/5) yig'ilishi qaroriga asosan pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan.** UDK: 37, Xalqaro standartlashtirish raqami (ISSN): 2992-9008.

Maqolalarning ilmiy saviyasi va keltirilgan ma'lumotlar uchun mualliflar javobgar hisoblanadi.

UDK: 81'27:37.016

NUTQIY-KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYA: MAZMUNI VA TARKIBIY KOMPONENTLARI

Erkaboyeva Feruza G'ayratovna

ORCID: <https://orcid.org/0009-0001-1965-1167>

Annotatsiya. Mazkur maqolada nutqiy-kommunikativ kompetensiya tushunchasining mazmun-mohiyati, shakllanishi va rivojlanish bosqichlari hamda uning asosiy tarkibiy komponentlari yoritilgan. Tadqiqotning maqsadi nutqiy-kommunikativ kompetensiyaning mazmunini nazariy jihatdan tahlil qilish va uning tarkibiy qismlarini tavsiflashdan iborat. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilish, taqqoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanilgan. N.Xomskiy, D.Xayms, M.Kenel, M.Sveytn va boshqa olimlarning qarashlari tahlil qilinib, lisoniy, sotsiolingvistik, pragmatik, strategik hamda madaniyatlararo kompetensiyalarning o'zaro bog'liqligi asoslangan.

Kalit so'zlar: nutqiy kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, lisoniy kompetensiya, sotsiolingvistik kompetensiya, pragmatik kompetensiya, strategik kompetensiya, madaniyatlararo kompetensiya, kommunikativ yondashuv.

РЕЧЕКОММУНИКАТИВНАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ: СОДЕРЖАНИЕ И СТРУКТУРНЫЕ КОМПОНЕНТЫ

Аннотация. В статье раскрываются сущность и содержание понятия речево-коммуникативной компетенции, этапы её формирования и развития, а также основные структурные компоненты. Цель исследования заключается в теоретическом анализе содержания речево-коммуникативной компетенции и характеристике её составляющих. В исследовании использованы методы теоретического анализа, сравнения и обобщения научной литературы. Проанализированы научные взгляды Н. Хомского, Д. Хаймса, М. Канале, М. Свейна и других исследователей. Обоснована взаимосвязь лингвистической, социолингвистической, прагматической, стратегической и межкультурной компетенций.

Ключевые слова: речевая компетенция, коммуникативная компетенция, лингвистическая компетенция, социолингвистическая компетенция, прагматическая компетенция, стратегическая компетенция, межкультурная компетенция, коммуникативный подход.

SPEECH-COMMUNICATIVE COMPETENCE: CONTENT AND STRUCTURAL COMPONENTS

Abstract. The article examines the concept, content, formation and development of speech-communicative competence and identifies its main structural components. The purpose of the study is to provide a theoretical analysis of speech-communicative competence and characterize its major components.

The study employs theoretical analysis, comparison and generalization of scientific literature. The ideas of N. Chomsky, D. Hymes, M. Canale, M. Swain and other scholars are analyzed. The interrelationship of linguistic, sociolinguistic, pragmatic, strategic and intercultural competences is substantiated. The study emphasizes the importance of developing these components comprehensively in foreign language education.

Keywords: *speech competence, communicative competence, linguistic competence, sociolinguistic competence, pragmatic competence, strategic competence, intercultural competence, communicative approach.*

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida chet tillarini o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarga faqat grammatik qoidalarni o'rgatish bilan cheklanib qolmay, balki ularda til vositalaridan turli kommunikativ vaziyatlarda samarali foydalana olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Shu nuqtai nazardan, nutqiy-kommunikativ kompetensiya zamonaviy til ta'limining muhim tushunchalaridan biri hisoblanadi. Nutqiy-kommunikativ kompetensiya shaxsning til haqidagi bilimlarini amaliy nutq jarayonida maqsadga muvofiq qo'llay olishi, turli vaziyatlarda fikrini aniq va tushunarli ifodalashi hamda suhbatdosh bilan samarali muloqotga kirisha olish qobiliyatini anglatadi. Ushbu kompetensiya faqat grammatik bilimlar yig'indisi emas, balki til vositalarini ijtimoiy, madaniy va kommunikativ sharoitlarga mos ravishda qo'llash imkoniyatini ham o'z ichiga oladi. Nutqiy-kommunikativ kompetensiya tushunchasining shakllanishi XX asrning ikkinchi yarmidagi tilshunoslik va til o'qitish metodikasidagi muhim o'zgarishlar bilan bog'liq. N.Xomskiy 1965-yilda "kompetensiya" va "perfomansiya" tushunchalarini bir-biridan farqlagan. Uning qarashlarida kompetensiya shaxsning til tizimi haqidagi bilimlarini, perfomansiya esa ushbu bilimlarni real nutq jarayonida qo'llash faoliyatini anglatadi. Biroq kompetensiyani faqat grammatik bilimlar bilan chegaralash kommunikativ faoliyatning barcha jihatlarini qamrab olmaydi. Keyingi ilmiy qarashlarda tilning ijtimoiy, madaniy va kommunikativ xususiyatlariga ham e'tibor qaratildi. D.Xaymsning ilmiy qarashlari kommunikativ kompetensiya tushunchasining rivojlanishida muhim o'rin tutadi. U

shaxs tilning grammatik qoidalarini bilishi bilan birga, ularni turli kommunikativ vaziyatlarda to'g'ri va o'rinli qo'llay olishi zarurligini ta'kidlagan. Shundan kelib chiqib, maqolaning maqsadi nutqiy-kommunikativ kompetensiyaning mazmunini nazariy jihatdan tahlil qilish hamda uning asosiy tarkibiy komponentlarini tavsiflashdan iborat.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Kommunikativ kompetensiya tushunchasining ilmiy asoslari turli davrlarda bir qator tilshunos va metodist olimlarning tadqiqotlarida rivojlantirilgan. N.Xomskiy tomonidan ilgari surilgan "kompetensiya" va "perfomansiya" tushunchalari til bilimlari bilan ularning amaliy nutqdagi qo'llanishini farqlash imkonini berdi. D.Xayms esa kommunikativ kompetensiya tushunchasiga ijtimoiy va madaniy omillarni kiritib, til birliklaridan vaziyatga mos foydalanish masalasiga e'tibor qaratdi. M.Kenel va M.Sveytn kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy tuzilishini ishlab chiqishda grammatik, sotsiolingvistik va strategik kompetensiyalarni ajratib ko'rsatdilar. Keyingi tadqiqotlarda mazkur yondashuv rivojlantirilib, diskursiv kompetensiya ham alohida tarkibiy qism sifatida qaraldi. S.J. Savignon kommunikativ kompetensiyaning til o'rganuvchining real kommunikativ vaziyatlarda til vositalaridan foydalanish qobiliyati bilan bog'laydi. L.F. Bachman va A.S. Palmer esa tilni baholash va kommunikativ kompetensiyaning aniqlash masalalarini tizimli ravishda ko'rib chiqadilar.

Mavjud ilmiy qarashlarni umumlashtirish asosida bugungi kunda nutqiy-kommunikativ kompetensiyaning quyidagi asosiy komponentlarini ajratish mumkin:

№	Kompetensiya turi	Asosiy mazmuni
1	Lisoniy kompetensiya	Fonetika, leksika, grammatika, semantika va imlo bilimlaridan foydalanish
2	Sotsiolingvistik kompetensiya	Til vositalarini ijtimoiy vaziyatga mos qo'llash
3	Pragmatik kompetensiya	Nutqni kommunikativ maqsadga muvofiq tashkil etish

4	Strategik kompetensiya	Muloqot jarayonidagi qiyinchiliklarni turli verbal va noverbal vositalar yordamida bartaraf etish
5	Madaniyatlararo kompetensiya	Turli madaniyat vakillari bilan samarali va hurmat asosida muloqot qilish

Tadqiqot metodlari. Maqolada nazariy tahlil, ilmiy manbalarni o'rganish, taqqoslash, tizimlashtirish va umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot manbalarida berilgan ilmiy qarashlar o'zaro taqqoslanib, nutqiy-kommunikativ kompetensiyaning tarkibiy qismlari mazmun jihatidan umumlashtirildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Lisoniy kompetensiya

Nutqiy-kommunikativ kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismlaridan biri lisoniy yoki lingvistik kompetensiyadir. Lisoniy kompetensiya shaxsning til tizimi haqidagi bilimlari va ulardan amaliy nutqda foydalanish qobiliyatini anglatadi. Lisoniy kompetensiya fonetika, fonologiya, leksika, grammatika, semantika va imlo qoidalarini egallashni o'z ichiga oladi. O'quvchi o'rganayotgan tilning tovush tizimini, so'z boyligini, grammatik qoidalarini va til birliklarining ma'nolarini bilishi zarur. Mazkur kompetensiya nutqning grammatik jihatdan to'g'ri va tushunarli bo'lishini ta'minlaydi. Biroq grammatik jihatdan to'g'ri tuzilgan gap har doim ham kommunikativ jihatdan o'rinli bo'lavermaydi. Shu sababli lisoniy kompetensiya boshqa komponentlar bilan uyg'unlikda rivojlantirilishi lozim.

Sotsiolingvistik kompetensiya

Sotsiolingvistik kompetensiya tilni ijtimoiy vaziyatga mos ravishda qo'llay olish qobiliyatidir. Ushbu kompetensiyaga ega bo'lgan shaxs kim bilan, qachon, qayerda va qanday uslubda muloqot qilish kerakligini anglaydi. Muloqot jarayonida suhbatdoshlarning yoshi, ijtimoiy mavqei, o'zaro munosabati va kommunikativ vaziyat muhim ahamiyatga ega. Rasmiy shaxs bilan muloqotda rasmiy uslubdan foydalanish, do'stlar bilan suhbatda esa nisbatan erkin uslubni qo'llash talab etiladi. Chet tilini

o'rganishda sotsiolingvistik kompetensiyaning ahamiyati yuqori. Chunki turli xalqlarda salomlashish, murojaat qilish, minnatdorchilik bildirish va xayrlashish shakllari farqlanishi mumkin.

Pragmatik kompetensiya

Pragmatik kompetensiya til vositalaridan kommunikativ maqsadlarga erishish uchun foydalana olish qobiliyatidir. U shaxsning o'z nutqini muayyan maqsad asosida tashkil etishini nazarda tutadi. Pragmatik kompetensiyaga iltimos qilish, maslahat berish, savol berish, ma'lumot so'rash, uzr so'rash, taklif bildirish va rad etish kabi nutqiy harakatlarni vaziyatga mos ravishda amalga oshirish ko'nikmalari kiradi. Pragmatik kompetensiyaning yana bir muhim jihati nutqni mantiqiy va izchil tashkil etishdir. Bunda fikrning kirish, asosiy qism va xulosa tarzida bayon qilinishi, gaplar o'rtasidagi mazmuniy bog'liqlikning ta'minlanishi muhimdir.

Strategik kompetensiya

Muloqot jarayonida turli qiyinchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Notiq kerakli so'zni eslay olmasligi, suhbatdoshining fikrini tushunmasligi yoki o'z fikrini aniq ifodalashda qiynalishi ehtimoldan xoli emas. Strategik kompetensiya ana shunday kommunikativ qiyinchiliklarni yengib o'tish va muloqotni davom ettirish uchun qo'llaniladigan verbal va noverbal vositalar majmuasidir. Masalan, o'quvchi biror so'zni bilmasa, uni boshqa so'zlar yordamida tushuntirishi, sinonimdan foydalanishi yoki ta'rif berishi mumkin. Mimika, jest va boshqa noverbal vositalardan foydalanish ham strategik kompetensiyaning muhim ko'rinishlaridan hisoblanadi.

Madaniyatlararo kompetensiya

Globalashuv va xalqlar o'rtasidagi aloqalarning kengayishi sharoitida madaniyatlararo kompetensiya alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chet tilini o'rganish faqat boshqa tilni o'zlashtirish emas, balki o'sha tilda so'zlashuvchi xalqlarning madaniyati, qadriyatlari va urf-odatlarini bilan tanishishni ham anglatadi. Madaniyatlararo kompetensiya shaxsning turli madaniyat vakillari bilan samarali va

moslashuvchan muloqot qila olish qobiliyatidir. U boshqa xalqlarning urf-odatlarini va qadriyatlarini haqida bilimga ega bo'lish, turli madaniy hodisalarni tushunish va taqqoslash hamda boshqa madaniyat vakillariga hurmat bilan munosabatda bo'lishni o'z ichiga oladi.

Nutqiy-kommunikativ kompetensiyani tizimli tuzilishi

Tahlil natijalariga ko'ra, nutqiy-kommunikativ kompetensiyani alohida va bir-biridan mustaqil ko'nikmalar yig'indisi sifatida emas, balki o'zaro bog'liq komponentlardan tashkil topgan tizim sifatida qarash maqsadga muvofiq. **Lisoniy kompetensiya → Sotsiolingvistik kompetensiya → Pragmatik kompetensiya → Strategik kompetensiya → Madaniyatlararo kompetensiya → Samarali kommunikativ faoliyat** Mazkur tizimda lisoniy kompetensiya til vositalarini egallashni ta'minlasa, sotsiolingvistik kompetensiya ushbu vositalarni ijtimoiy vaziyatga moslashtiradi. Pragmatik kompetensiya fikrni maqsadga muvofiq ifodalashga yordam beradi. Strategik kompetensiya muloqotdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Madaniyatlararo kompetensiya esa turli madaniyat vakillari bilan samarali va hurmat asosida muloqot qilish imkonini yaratadi. Shu jihatdan, chet tilini o'qitish jarayonida mazkur komponentlarning barchasini kompleks ravishda rivojlantirish zarur.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, nutqiy-kommunikativ kompetensiya zamonaviy til ta'limining muhim natijalaridan biri hisoblanadi. U o'quvchining til haqidagi nazariy bilimlari bilan bir qatorda, mazkur bilimlarni real kommunikativ vaziyatlarda samarali qo'llay olish qobiliyatini ham ifodalaydi. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, nutqiy-kommunikativ kompetensiya tushunchasining shakllanishida N.Xomskiy, D.Xayms, M.Kenel, M.Sveytn va boshqa olimlarning qarashlari muhim o'rin tutadi. Xomskiy kompetensiya tushunchasini til nazariyasi doirasida asoslagan bo'lsa, D.Xayms uni ijtimoiy va kommunikativ jihatlar bilan kengaytirdi. Keyingi tadqiqotlarda kommunikativ kompetensiyani ko'p tarkibli tizim ekanligi asoslandi. Tahlil asosida

nutqiy-kommunikativ kompetensiyaning lisoniy, sotsiolingvistik, pragmatik, strategik va madaniyatlararo komponentlardan tashkil topishi ko'rsatildi. Lisoniy kompetensiya til vositalarini bilish va ulardan foydalanishni ta'minlaydi. Sotsiolingvistik kompetensiya ushbu vositalarni ijtimoiy vaziyatga moslashtiradi. Pragmatik kompetensiya fikrni maqsadga muvofiq va izchil ifodalashga yordam beradi. Strategik kompetensiya kommunikativ qiyinchiliklarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Madaniyatlararo kompetensiya esa turli madaniyat vakillari bilan samarali va hurmat asosida muloqot qilish imkonini yaratadi. Shu sababli chet tillarini o'qitish jarayonida mazkur kompetensiyalarning barchasini kompleks ravishda rivojlantirish muhimdir. O'quvchi nafaqat grammatik jihatdan to'g'ri gapira olishi, balki o'z fikrini turli vaziyatlarda aniq, tushunarli, mantiqiy va o'rinli tarzda ifodalashni ham o'rganishi zarur.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Bachman L.F. Fundamental Considerations in Language Testing. – Oxford: Oxford University Press, 1990.
2. Bachman L.F., Palmer A.S. Language Testing in Practice: Designing and Developing Useful Language Tests. – Oxford: Oxford University Press, 1996.
3. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. 5th ed. – White Plains, NY: Pearson Education, 2007.
4. Canale M. From Communicative Competence to Communicative Language Pedagogy. In: Richards J.C., Schmidt R.W. (eds.). Language and Communication. – London: Longman, 1983. – P. 2–27.
5. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. // Applied Linguistics. – 1980. – Vol. 1, No. 1. – P. 1–47.
6. Celce-Murcia M. Rethinking the Role of Communicative Competence in Language Teaching. In: Soler E.A., Jordà M.S. (eds.). Intercultural Language Use and Language Learning. – Dordrecht: Springer, 2007. – P. 41–57.
7. Chomsky N. Aspects of the Theory of Syntax. – Cambridge, MA: MIT Press, 1965. – 251 p.
8. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, Teaching, Assessment. – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.
9. Hymes D. On Communicative Competence. In: Pride J.B., Holmes J. (eds.). Sociolinguistics. – Harmondsworth: Penguin Books, 1972. – P. 269–293.
10. Littlewood W. Communicative Language Teaching: An Introduction. – Cambridge: Cambridge University Press, 1981.

11. Richards J.C., Rodgers T.S. Approaches and Methods in Language Teaching. 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2014.
12. Savignon S.J. Communicative Competence: Theory and Classroom Practice. – Reading, MA: Addison-Wesley, 1983.